

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

Jo`rayeva Asilaning

**Lutfiyning badiiy mahorati
mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Namangan 2016

MUNDARIJA

KIRISH	3
I bob. Lutfiy – zamonasining «malik ul-kalomi»	6
1.1. Prezidentimiz I.A.Karimovning ma’naviyat, badiiy adabiyot haqidagi fikrlari	6
1.2. Lutfiy va uning lirik merosi	10
1.3. Lutfiy lirikasining mavzu va g’oyalar olami	20
II bob. Lutfiy lirikasida badiiy tasvir vositalari	26
2.1. Tazod va talmeh	26
2.2. Husni ta'lil va mubolag'a	34
2.3. Lutf va irsoli masal	43
Xulosa	49
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	52
Illova. Slaydlar	

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. Istiqlolimizning dastlabki kunlaridan to hozirga qadar ajdodlarimiz merosini har tomonlama o'rganish, shu asosda millatning kelajagi bo'lgan yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda bu masala davlat siyosatining ustuvor sohalaridan biriga aylanganligi hech kimga sir emas

Bu boradagi vazifalarni amalga oshirishda Navoiygacha bo'lgan davrdagi o'zbek she'riyatining yirik vakili Mavlono Lutfiy asarlarining ham o'rni beqiyos.O'zbek adabiyoti tarixida o'zining go'zallik tajassumidan iborat g'azallari bilan katta shuhrat qozongan shoир ijodiyoti ulkan ma'naviy xazinadir. Lutfiy she'rlaridan devon tuzgan. Devondan g'azal,ruboiy, tuyuq, qit'a, fard kabi lirik janrlardagi she'rlar o'rinni olgan. Shoир, xususan, mazmunan yuksak va shaklan go'zal g'azallar yaratib, bu janrning rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Uning rang-barang mavzularda yozilgan g'azallari mohiyatini hayot zavq- shavqlari,tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lismi, sevgi- sadoqatni ulug'lash,ezgulikni targ'ib etish g'oyalari tashkil etadi.Xalq og'zaki ijodi boyliklaridan bahramand bo'lgan shoир she'rlari go'zal badiiy san'atlar bilan ziynatlangan. Shuningdek, shoир tuyuq janrining ustasi sifatida tanilgan so'z san'atkoridir.Shu ma'noda, shoirning badiiy barkamol she'riyati badiiyatini o'rganish, mavzuga doir manbalardagi ma'lumotlarni umumlashtirish, shoirning poetik mahoratini yoritib berish dolzarblik kasb etadi.

Mavzuning o'rganilish tarixi. Lutfiy ijodiga qiziqish o'z davridayoq boshlangani ma'lum. Davlatshoh Samarqandiy, Xondamir, Abdulloh Kobuliy va boshqalarning asarlarida shoир va uning ijodi haqida ma'lumotlar uchraydi. Alisher Navoiyning Lutfiy siymosiga, ijodiga oid fikrlari «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Nasoyim ul-muhabbat» asarlarida mavjud.¹

¹ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT. 20 jildlik. 13-jild. –Toshkent: 1997. Muhokamat ul-lug'atayn. MAT. 20 jildlik. 14-jild. –Toshkent: 1998. Holoti Pahlavon Muhammad. MAT. 20 jildlik. 15-jild. –Toshkent: 1999. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 20 jildlik. 17-jild. –Toshkent: 2001.

Mavlono Lutfiy hayoti va ijodi, ijodiy merosi, shoirning poetik mahorati masalalarini o'rganish sohasida anchagina ishlar qilingan. Akademik Aziz Qayumov, prof. Vohid Zohidov, prof. Natan .Mallayev, prof, Hodi Zarif, prof. A.Hayitmetov, prof. Erkin Rustamov, prof. Sodir Erkinov, kabi olimlarning tadqiqotlari, darslik va qo'llanmalarida shoir hayoti va ijodiy faoliyati, she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, badiiyati kabi masalalar tadqiq etilgan.¹

Lutfiy haqida «O'zbek adabiyoti tarixi»da N.Mallaev, besh jildlik «O'zbek adabiyoti tarixi»da S.Erkinov yozgan. Ergash Rustamovning «Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV v.» kitobida Lutfiy she'riyatining g'oyaviy-badiiy jihatlari ochib berilgan, ayniqsa, shoir xalq og'zaki ijodidan g'oyat unumli foydalanganiga e'tibor qaratilgan.

Keyingi yillarda Hojimurod Rasulov tomonidan shoir ijodidagi badiiy mahorat masalalarining ayrim qirralari o'rganildi.² Yuqorida zikr etilganlar Lutfiy ijodi va uning poetik mahoratini o'rganish borasida ma'lum yutuqlar borligini tasdiqlaydi. Lekin shoirning lirik merosi badiiyatini chuqur tahlil va tadqiq etish, shoir mahoratining nozik qirralarini o'rganish, uning o'zbek she'riyati tarixida tutgan o'rnnini belgilash va baholash hali ko'p tadqiqotlar olib borilishini taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mavzuni yoritish jarayonida qo'yidagi maqsad va vazifalar belgilandi:

- Lutfiy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish;
- shoirning adabiy merosi masalasi xususida fikr yuritish;
- shoir devoni va uning janrlar tarkibini o'rganish;
- shoir lirkasining mavzu va g'oyalar ko'lamin tahlil qilish;
- Lutfiy g'azaliyotida qo'llangan ma'naviy san'atlarni aniqlash va ularni sharhlash;
- shoir g'azallaridagi lafziy san'atlarni tahlil qilish;

¹B. Valixo'jaev.Malik ul- kalom Mavlono Lutfiy.. –Samarqand,1999.N.Mallaev.O'zbek adabiyoti tarixi.-Toshkent, 1976.

² Qayumov A. Asarlar. 10 jildlik, 2-jild, –Toshkent: Mumtoz so'z, 2008; Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. –Toshkent: 2006.

- shu asosda Lutfiy lirikasi badiiyatining ayrim qirralarini o'rganish, bu masala xususidagi ma'lumotlarni umumlashtirsh.

Tadqiqot manbalari. Lutfiyning «Ozbek adabiyoti bo'stoni» turkumida nashr etilgan «Sensan sevarim» to'plamidagi hamda shoirning turli yillarda nashr etilgan devonlaridagi she'rlari tadqiqot manbalari vazifasini bajardi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv – malakaviy ishida Lutfiy hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar, shoir lirikasi va uning mavzu hamda g'oyalar olami, xususan, she'riy san'atlarni qo'llashdagi shoir mahorati masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, manbalardagi ma'lumotlar umumlashtirilgan va xulosalar chiqarilgan. Bular ishning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Bitiruv – malakaviy ishi natija va xulosalaridan oliygohlarda «O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi» fani bo'yicha o'tkaziladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda, maxsus kurslarda, shuningdek, akademik litsey va kollejlarda adabiyot darslarida foydalanish mumkin.

Ishning tarkibi. Bitiruv – malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, slaydlardan iborat.

I bob. Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni

1.1. Prezidentimiz I.A.Karimovning ma’naviyat, badiiy adabiyot haqidagi fikrlari

Mustaqil O’zbekistonning kelajagi ko’p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog’liq. Ana shunday vazifani amalga oshirish uchun Vataniga, xalqiga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan erkin, ijodkor shaxsni shakllantirish mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardanoq davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi.

Ma’lumki, ma’naviyatimizning yorqin sahifalarini ajdodlarimizning salmoqli asarlari tashkil etadi. Xususan, Alisher Navoiy ijodi yosh avlodning barkamol inson bo’lib kamolga yetishida ulkan ahamiyat kasb etadigan yuksak ma’naviy xazinadir. Buni chuqur anglagan yurtboshimiz tomonidan 1991 yilni «Alisher Navoiy» yili deb e’lon qilindi. «Alisher Navoiy yili deb e’lon qilingan 1991 yil yurtimiz, elimiz tarixida qutlug’ keldi, unutilmas sana bo’lib qoldi. Bu yil xalqimizning asriy orzu-umidlari amalga oshdi. O’zbekistonimiz davlat mustaqilligini e’lon qildi va o’z taqdirini endi o’zi hal qiladigan bo’lib qoldi».¹ Mustaqillik tantanalaridan so’ng, O’zbekiston Milliy bog’ida Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan shoirga haykal o’rnatildi. Prezidentimiz I.A.Karimov shoir haykali ochilishi marosimida so’zlagan nutqida «Bugun biz bobomiz ruhi oldida ta’zim bajo keltirar ekanmiz, undan avval va undan keyin o’tgan ulug’ zotlarning ruhlari ham shod bo’ladi, deb umid qilamiz. O’z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi albatta porloq bo’ladi. Ishonamizki, O’zbekistonimiz tez orada dunyo hamdo’stligi o’rtasida o’ziga munosib o’rinni egallaydi», - deb to’g’ri e’tirof etgan edilar.² Buni Alisher Navoiydek buyuk shoirini e’zozlagan davlatimiz va xalqimizning dunyo miqyosida erishayotgan yutuqlari tasdiq etib turibdi.

¹ Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: O’zbekiston, 2011. 400-bet.

² Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: O’zbekiston, 2011. 403-bet.

Hozirgi davrdagi tub islohotlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, yuqori malaka, yuksak onglilik, ijodkorlik, jamiyat oldida ma'suliyatni his etishni talab qiladi. Bu muhim vazifalarni amalga oshirish, ma'naviy boy, barkamol shaxsni shakllantirish ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni izchil olib borishni taqozo etadi.

Ma'lumki, ma'naviyat – o'zlikni anglashdan boshlanadi. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida ma'naviyatga eng muhim masala sifatida katta ahamiyat berib kelinmoqda. Davlat rahbarimizning aksariyat asarlarida mazkur masalaga asosiy e'tibor qaratilib, uning asosini tashkil etadigan adabiyotimiz ma'naviyatimizni yuksaltirishda alohida ahamiyat kasb etishi ko'p bora ta'kidlanadi. Ana Shu yuksak e'tibor natijasi sifatida respublikamiz mustaqilligining 18 yilligi arafasida nashrdan chiqqan «Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» risolasi fikrimizning yaqqol dalilidir. Risolada «... adabiyot masalasi bu ma'naviyat masalasidir»¹ deb ta'kidlanadiki, bu xulosa naqadar to'g'ri va haqqoniy e'tirof etilganligini chuqr anglaymiz.

Ma'lumki, biz butun dunyoni global muammolar, inqirozlar qamrab olayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Ana Shu muammolarning oldini olish va ularni bartaraf etish, Shu asosda O'zbekistonning nurli kelajagini ta'min etish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lmog'i lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov «... biz hozirdanoq taraqqiyotimizning inqirozdan keyingi davri haqida chuqr o'yashimiz, bu borada uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqish haqida bosh qotirishimiz kerak. Bu dastur iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarini egallah uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalarni o'zida mujassam etish darkor»², - degan edilar . Zero, bu dasturlarni amalga oshirishda yosh avlodning har jihatdan etuk, bilimdon va ma'naviyati yuksak bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir. Yoshlarning

¹ Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –Toshkent: O'zbekiston, 2009. 23-bet.

² Karimov I.A. Jahon moliyaviy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - Toshkent: O'zbekiston, 2009. 19-bet.

ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida esa ma'naviyatimizning go'zal namunalari muhim o'rin tutadi.

Ma'naviy barkamollikka erishish insonni doim o'z yo'lidan adashmay borishida asosiy mexanizm vazifasini o'taydi. «Ma'naviyat - insonni ruhan poklash, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamni ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»¹, - deya ma'naviyatga to'g'ri baho bergan edilar prezidentimiz I.A.Karimov.

Ma'naviyat - insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, uni kuchaytiradi.

Insoniyat tarixi ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

Yurtboshimiz «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch» asarida Shunday degan edilar: «... har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini, uning tarixi, o'ziga xos urf-odati va ang'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi»². Darhaqiqat, ma'naviy merosimizning g'oyaviy-badiiy jihatdan barkamol namunalari yosh avlodning ongu Shuurini va ma'naviy olamini yuksaltirishda alohida ahamiyatga egadir.

Bugungi avlodning barkamol insonlar sifatida kamolga etishadi mumtoz adabiyotimizning, xususan, Alisher Navoiyning o'rni beqiyos. Ana boshi yurtboshimiz I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch», «Adabiyotga

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 19-bet.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008, 5-bet.

e'tibor - manaviyatga, kelajakka e'tibor» asarlarida mutafakkir shoirning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan ulkan hissasi yosh avlod tarbiyasidagi o'rni masalalariga alohida e'tibor beradilar. Xususan, «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch» asarida shoir va uning ijodiga juda yuksak baho beradi: «O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri - bu Alisher Navoiy bobomizdir...»

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, mumtoz adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'ni-sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkori. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desa mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir»¹.

Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu Shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelishi hech kimga sir emas. Bu bebaho meros xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda qudratli ma'rifiy qurodir.

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi ana Shu xalq tarixiga nisbatan chuqr hurmat ifodasıdır. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Keyingi paytlarda buyuk ajdodlarimizning so'nmay dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lган qiziqish xorijiy ellarda ham ortib bormoqda. Buning tasdig'ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e'lon qilinayotgan ilmiy, badiiy asarlar, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko'rish

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008, 47-bet.

mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug’bekka, Moskva, Tokio va Baku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg’oniy xotirasiga muhtasham haykallar o’rnatilgan.

Prezidentimiz xalqimizning asl tabiatida mavjud bo’lgan ana Shunday ilmiy-ma’naviy salohiyat va fazilatlarni ta’kidlar ekanlar «Oqqan daryo oqaveradi» degan naqlni tilga oladilar¹. Darhaqiqat, barcha zamonlarda ham ilmu ma’rifat va yuksak ma’naviyatga intilish xalqimizning go’zal fazilati bo’lib qolganligini, yuzlab alloma-yu shoirlarimiz xalqimiz dahosining o’lmas timsoliga aylanganligini ko’ramiz.

Xususan, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Sa’diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rahimbobo Mashrab kabi so’z san’atkorlarining ijodiy merosi yoshlarga ona-Vatanga, xalqqa cheksiz muhabbat, mehr-sahovat, vafo-sadoqat, mehnatsevarlik, rostgo’ylik kabi muhim fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

1.2. Lutfiy va uning lirik merosi

Zamonasining malikul-kalomi – so’z mulkining sultoni faxriy unvoniga munosib ko’rilgan, Firdavsiy, Nizomiy, Anvari, Sa’diy, Xoja Hofiz singari buyuk fors-tojik adabiyoti darg’alari qatoridan faxrli o’rin egallagan Mavlono Lutfiy o’zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyandalaridan biridir. Shoirning hayoti va faoliyati haqida Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois», «Muhokamatul-lug’atayn», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Xutbai davovin», «Badoye’ ul-bidoya» devoni debochasi va boshqa asarlarida, Davlatshoh Samarcandiyning «Tazkiratush-shuaro», Xondamirning «Habibus-siyar», «Makorimul- axloq», Abdulla Kobuliyning «Tazkirat -ut tavorix», Shamsuddin Somiyning «Qomusul-a’lom», Vosihning «Majmuai manzum va mansur», Shayx Ahmad Taroziyining

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008, 49-bet.

«Fununul- balog'a» singari qator manbalarda ma'lumotlar uchraydi.¹ Shunday bo'lishiga qaramay, Lutfiyning tarjimai holi va adabiy merosi haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Jumladan, Lutfiy shoirning taxallusi bo'lib, uning nomi, ota-onasi, tug'ilgan yil va joyi, safarlari hamda shunga o'xshash qator masalalar haligacha lutfiyshunoslikda o'z yechimini qat'iy topganicha yo'q.

Mavlono Lutfiyning zamondoshlaridan bo'lgan ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida shoirning to'qson to'qqiz yil umr ko'rgani, hayotining so'ngida forsiyda «Oftob» radifli g'azal yozgani va zamon shoirlari unga tatabbu' qilganliklari, yigitligida zohiriyl ulum tahsilidan so'ng Mavlono Shahobiddin Xiyoboniy qoshida so'fiya tariqatidan tahsil olgani hamda Hirot chekkasidagi Dehikanor degan joyda dafn etilganligi haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Akademik B.Valixo'jayev «Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy» nomli risolasida shoirning tug'ilgan va vafot etgan yillari hozirgi kunda Abdulla Kobuliyning «Tazkirat ut-tavorix» kitobiga tayangan holda prof. Ismoil Hikmat Ertaylon tomonidan 1395-1492, adabiyotshunos S.Erkinov, E.Ahmadxo'jayevlar esa bu sanalarni 1366-1465 yillar tarzida belgilaganliklarini qayd etadi. Shuningdek, olim bu masalaning nozik nuqtalariga e'tiborni qaratib, shoirning tavallud va vafot etgan sanalarini tahminan 1385-1386–1482-1483 yillar tarzida belgilash mumkinligini e'tirof etadi. Akademik B.Valixo'jayevning bu boradagi mulohazalari diqqatga sazovordir. Olim Shayx Ahmad Taroziyuning «Fununul-balogs'a» asarida «Ma'dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy» hamda «Lutfiyi Shoshiy aytur» tarzida tilga olingan bo'lsa-da, shoirning tavallud manzilini qat'iy Shosh – Toshkent deb belgilash mushkul ekanligini asosli dalillar vositasida izohlaydi hamda Lutfiyning tug'ilgan vatani haqida hozircha ikki mulohaza mavjud, bularning biri – Hirot, ikkinchisi, Shosh – Toshkent ekanligini qayd etadi.²

«Nasoyim ul-muhabbat»dagi Navoiy fikrlari boshqa asarlari kabi keng tarqalmagani uchun keltirib o'tish joiz: «Tahsil ayyomida Mavlono Shihobuddin

¹ Alisher Navoiy. Majolis un- nafois. MAT. 20jildlik. 13-jild. –Toshkent: Fan, 1997, 60-61-betlar.

² B.Valixo'jaev. Malik ul-kalom. Mavlono Lutfiy. –Samarqand: 1999, 14-17- betlar.

Xiyoboniy xizmatig'a yetar ekandur va odobi tariqat sulukini andin kasb qilur erkondur. Agarchi shoirlaq tariqida ma'ruf va mashhur bo'ldi. Ammo darveshlik tariqini dag'i ilkidin bermadi. Bu faqir borasig'a ko'p iltifoti bor erdi va fotihalar o'qur erdi va doim volida mulozamatig'a va rizoe xotirig'a targ'ib qilur erdi. To'qson yoshidin tajovuz qilg'onda, Hazrat Mahdumi (nuvvira marqaduhu nuran) otig'a radifi «suxan» saj' qasidae aytib erdiki, zamon xushgo'ylari barcha xubluqqa musallam tuttilar va ul hazrat dog'i insof berdilar va oning matlai budurkim.

Bayt:

Zihi hadisi labat quvvatu ruhu jon ast,

Guli ruxat chamanoroyi bo'ston ast.

(Mazmuni: Xusho, labingdan chiqqan so'zlar – ruh ozig'i, so'zning jonidir. Yuzing guli – so'z bo'stoni chamanlarini bezovchidir.)

Ul Hazrat shukrguzorlik yuzidin ma'zirat izhori qilib, dedilarkim, bu she'rning silasi uhdasidin biz chiqolmasbizki, magar muqobalada ham qasidae sizning otingizg'a aytqaybiz. Mavlono dedilarkim, ani sizga oson qilurbiz. Sizing kiygan eski to'nungizni gadoyliq qilurbizki, hulla bo'lg'ay. Ul hazrat uzrxohliklar bila kisvatni Mavlonog'a kiydurdilar. Mavlono bag'oyat so'xta kishi erdi. To'qson to'qquz yoshida olamdin o'tti, qabri Dehikanordadurki, o'z maskani erdi. Bu matla'idin bu toifa mashrabining choshnisi zohirdur:

Ulki, husn etti bahona elni shaydo qilg'ali,

Ko'zgutek qildi seni o'zini paydo qilg'ali».¹

Mazkur fiqrada Navoiy Mavlono Lutfiyning Abdurahmon Jomiyga bo'lган hurmati va botiniy e'tiqodi haqida so'з yuritadi. Lutfiy davrning taniqli tariqat peshvolaridan Shihobuddin Xiyoboniy xidmatlariga yetishib («Majolis un-

¹Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 20 jildlik. 13-jild. –Toshkent: 1987, 476-477-betlar.

nafois»da Navoiy uni «aziz va mutabarrak kishi erdi», deb ta'riflaydi), tariqat yo'llarini kasb qilgani bayon etiladi. Lutfiy tabiatida darveshlikka moyillik ustuvor bo'lgani ta'kidlanadi. Binobarin, Lutfiy ijodida tasavvufiy aqidalar, sufiyona ta'birlar mavjud bo'lgan. Shoir ijodining bu jihatlari yoritilmagani izoh talab qilmaydi. Demak, «Nafahot ul-uns» tarjimasi ustida ishlaganda Navoiy uni to'ldirishga ahd etar ekan, turkiy mashoyix, tasavvufga daxldorligi bor turkiygo'y shoirlarni kiritgani tasodifiy emas.

Navoiyning «Holoti Pahlavon Muhammad» asarida shunday bir nukta bor. Unga ko'ra, Lutfiy she'riyatida dunyoviylik tushunchasi ustunligi anglashiladi. Kunlarning birida Pahlavon Muhammad Navoiydan turkiygo'y shoirlardan qaysi biri yaxshiroq yozgan va sen xush ko'rasan, maqbul ko'rasan, deb so'rabdi. Navoiy debdi: – Mavlono Lutfiy holo musallamduclar va bu qavmning ustodi va malik ul-kalomidur. Pahlavon Muhammad: – Nechuk Sayyid Nasimi demading? – deganida, Navoiy: – Xotirg'a kelmadni va bar taqdir kelmoq, Sayyid Nasimiyning nazmi o'zga rang tushubtur, zohir ahli shuarosidek nazm aytmaydur, balki haqiqat tariqin ado qilibdur. Bu savolda sening g'arazing majoz tariqida aytur el erdi.¹

«Majolis» oxirida «Xilvat» deb berilgan, Husayn Boyqaroning Navoiy «oliy majlis» deb ta'riflagan adabiy anjumanlarining birida Sultonning «g'ayri nazm latoyifidin», deya Lutfiy bilan bog'liq naql keltiriladi.

Bahor kunlarining birida shiddatli yomg'ir yog'ayotgan paytda Lutfiy Navoiyni uchratadi va unga Xusrav Dehlaviyning hinducha she'rlaridan bir ma'noni aytib beradi:

Bahor chog'ida mahbub qaygadur ketayotgan ekan. Yog'indan yer balchiq bo'lib, u toyib ketib, yiqilayozibdi. U shunday nozik ekanki, yog'in torini tutib, o'nglanib olibdi. Navoiy Xusravning juda nozik xayolidan xushhol bo'lib, tab' ahlidan ba'zilarga aytib berganda, ular ham qoyil qoladilar. Navoiy ko'p hayajon bilan Husayn Boyqaroga aytib bergenida, u tabassum qilib, fikr bildirmaydi – e'tiroz etgandek tuyuladi Navoiyga. Navoiy yana shu haqda so'z ochganda, Sulton deydi: «E'tiroz budurkim, ul yog'in qatrasи yuqoridin quyi inib keladur,

¹ Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. MAT. 20 jildlik. 13-jild. –Toshkent: 1987, 114-116-betlar.

muqarrardurkim, rishtasig'a dag'i hamul holdur. Rishtaekim, mayli quyi bo'lg'ay, aning madadi bila yiqiladurg'on o'zin asramog'i maholdur». Mana bu baytdagi fikrga esa, e'tiroz qilish maholdur, deydi Husayn Boyqaro:

Za'fdin kulbamda qo'pmoq istasam aylar madad.

Ankabute rishta osqon bo'lsa har devorg'a.¹

Mazkur lavhada Husayn Boyqaro she'rda mantiqqa rioya etishga e'tibor bergen. Lutfiy, Navoiy va boshqalar esa, fikrning noyobligiga e'tibor qilganlar. Demak, Navoiy majoziy yo'nalishni Lutfiy she'riyatida asosiy deb qaragan.

Mavlono Lutfiy madrasada tahsil olgan. U o'sha davr madrasai oliyalarida o'qitiladigan rasmiy-zohiriylar fanlarni o'rganish jarayonida, shubhasiz, arab va fors tillarini ham o'zlashtirgan va zullisonayn shoir sifatida turkiy hamda forsiy tillarda ijod qilgan. Lutfiy, ayniqsa, turkiy tilda badiiy jihatdan barkamol asarlar yozgan. Albatta, shoir bu darajaga yetishish uchun Sharq mumtoz adabiyoti an'analari va badiiy ijod sirlarini puxta o'rgangan. Lutfiyning yuksak iste'dod sohibi ekanligidan Movarounnahr hukmdori Ulug'bek Mirzo, Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo va Boysunqur Mirzolar ham xabardor bo'lishgan. Mavlono Lutfiy she'rlarida Turkiston, Chig'atoy. Samarqand, Amu, Hirot, Qorabog', Aras, Qrim, Kobul, Iroq kabi jug'rofik nomlar uchraydi. Biroq biz eslatgan manbalarda shoirning zikri o'tgan shaharlarga safar qilganligi haqida ma'lumotlar keltirilmagan.

Umrining asosiy qismi o'qish, o'rganish va badiiy ijod mehnati bilan o'tgan. Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasida ma'lumot berilishicha, Lutfiy umrining oxirlarida «oftob» radifli bir she'r yozgan, o'sha zamonning ko'p shoirlari unga tatabbu' qilganlar, ammo ularidan hech biri Lutfiyning «panjasiga panja» ura olmaganlar. Navoiyning yozishicha, Lutfiy 90 yoshdan o'tganda, Abdurahmon Jomiy otig'a radifi «suxan» saj' qasidae aytib erdiki, zamon xushgo'ylari barcha xo'bliqqa musallam» tutmishlar («Nasoyim ul-muhabbat»). Lutfiy ham zohiriylar, ham diniy-tasavvufiy ilmlarni chuqur egallagan,

¹Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT. 20 jildlik. 13-jild. –Toshkent: 1997, 61-62-betlar.

davr va zamoniga ochiq nazar bilan qarashga qodir, haqiqat va ma'rifatga sodiq ijodkor edi. Navoiy so'zi bilan aytganda, u «forsiy va turkiyda naziri yo'q» shoir bo'lgan. Lutfiy garchi o'z ona tili – turkiy tilda yaratilgan she'rlari bilan mashhurlikka yetishgan bo'lsada, forsiyda ham o'zining shoirlilik iqtidori va mahoratiga ko'pchilikni iqror eta olgan. Ikkinchidan, Lutfiy she'riyat bilan tariqatni, majoz bilan haqiqatni uyg'unlashtirgan edi. Ammo u so'nggi nafasigacha shoirlilik burchi va ilhomiga sodiq qolib, o'zbek she'riyati xazinasini biri biridan qimmatli nazm durdonalari bilan boyitdi. Shu bilan bir qatorda, shoirlilik nechog'lik «ma'ruf va mashhur» bo'lmasin, «darveshlik tariqini dag'i ilikdan» (Navoiy) chiqarmagan edi. Xuddi shu narsa uning nafaqat o'z zamondoshlari va ijod ahli orasida, balki davr hukmdorlari oldida ham yuqori mavqega ko'tarilishiga bir asos bo'lgan. Haqiqatan qam Lutfiyning she'riyati – xilma-xil shakllardan tarkib topgan mazmundor, rangin she'riyat.

Lutfiy turkiy tildagi she'rlarini jamlab, devon tartib bergan. Alisher Navoiy shoirning «turkcha devoni ham mashhurdir», – deya ta'kidlaydi. Shoир devonlarining bir necha qo'lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan. Bizgacha shoirning 16–20-asrlar mobaynida ko'chirilgan turkiy devonining 33 qo'lyozma nusxasi yetib kelgan bo'lib, ular Toshkent, Dushanba, Istanbul, Tehron, London, Parij, Sankt-Peterburg kutubxonalari va qo'lyozma fondlarida saqlanadi. Olim E. Ahmadxo'jaevning aniklashi bo'yicha, Lutfiy qalamiga mansub mavjud she'rlarning umumiy miqdori 2774 bayt yoki 5548 misradan ortiq. Ularning katta qismi (2086 bayti) g'azal janrida yozilgan. Mavlono Lutfiy devonining hoziigacha ma'lum nusxalarida 372 g'azal, 3 qasida, 115 to'rtlik, 60 fard va ruboiy, tuyuq, qit'a kabi janr namunalari uchraydi.

Alisher Navoiy Lutfiyning uch g'azaliga muxammas bog'lagan.

Ey, soching shaydo ko'ngullarning savodi a'zami,
Halqa-halqa ruxning sarmanzilidur har xami

matla'li g'azaliga muxammasida Navoiy 4-baytni 3-qilib olgan va maqta'ni

Lutfiyni boshtin yana turguzsang, ey Isonafas,
Kim yetibdur, vah, ani o'lturgali hijron g'ami –

tarzida beradi.

Anqara nashri va «Sensan sevarim»da ikkinchi misra shunday:

Kim tanindin bo'ldi ko'p jon olg'ali hijron g'ami.

2-muxammas Lutfiyning quyidagi matla'li g'azaliga bog'langan:

Ko'ktadur har dam fig'onim ko'rgali sen mohni,
Da'vii mehringga tonuq tortadurmen ohni.

G'azal 7 baytli bo'lib, 7 baytdan 5 bayti olingan va 3-bayt 4-o'rinda keladi.
5–6-baytlar tushirilib qoldirilgan.

«Zulfa oy yuzing» – «zulfungu yuzing», «qil nadirkim» – «rahm qilkim»,
«zakoti husn uchun» – «zakoti husn anga» deb tahrir etilgan.

3-muxammas Lutfiyning:

Laylat ul-me'rojning sharhi sochi tobindadur,
Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur.

matla'li g'azaliga bog'langan. Navoiy 4-baytni ikkinchi qilib olgan, 3 – 4-baytlarni tushirib qoldirgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, bular Navoiyning ilk rasmiy devoni «Badoe' ul-bidoya»da keltirilgan. Demak, ular 870–885 / 1465–80 yillar o'rtasida yozilgan.

Navoiyning 10 muxammasidan uchtasi Lutfiy g'azallariga bog'langan.
Navoiy Lutfiyning:

Ey, jamoling loyazolu bebadal husnung jamil,
Oy yuzingdur ahsani taqvim uchun ravshan dalil...

Ey, qading to’biyu jannat xaddi gulgun ustina,
Ko’rmadi davron seningtek oy gardun ustina

matla’li g’azallariga musaddas ham bog’lagan – tasdis qilgan. Bular ham «Badoe’ ul-bidoya»da keltirilgan.

Bugina emas, Navoiyning Lutfiy g’azallariga tatabbu’ va tavrlari, javobiyalari ham bor. Lekin ular o’z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Muxammas bog’lashda shoir olinayotgan g’azalning har baytiga mazmun ham badiiy tafsillarning uyg’un bo’lishiga e’tibor berishi zarur bo’lgan. Navoiy Lutfiy g’azallaridan muxammas va musaddaslar bitar ekan, ulardagi g’oyani yanada teranlashtiradi, badiiyatini ochib beradi. Natijada Lutfiyga hamovoz Navoiy g’azalni idrok etish, undan ruhiy ta’sirlanishga noil bo’ladi.

Lutfiy g’azallaridan birida shunday mahbubaga ko’z qorachig’imni vatan ayla, degan ma’noli matla’ bor. Navoiyning mashhur, o’z davridayoq maqom yo’llarida ijro etilgan «Qaro ko’zum kelu mardumlig’ emdi fan qilg’il...» g’azaliga Lutfiydagagi nozik nukta ilhom baxsh etgandir.

Mashhur ozarboyjon shoiri Muhammad Fuzuliy Lutfiyning:

Ey, azaldan to abad ko’nglum giriftoring sanin,
Chora qilkim, bo’ldu jonim asru darmoning sanin

matla’li g’azaliga taxmis bog’lagan, faqat asliyatdagi «afgoring» qofiyasi «darmoning» deb xato olingan. XIX asrning ko’rkamli shoiri Amiriyl ham Lutfiy g’azallaridan:

Ey, sanavbar bo’yli dilbar, fikri hijron qilmag’il,
Shavq o’tinda men gadoni asru biryon qilmag’il...

Ishq tushsa ham ko’ngulga, dardu g’amdin chora yo’q,
Etsa chun nashtar jarohatqa, alamdin chora yo’q...

Nortek yangoqlaring kibi sham' anjumanda yo'q.

Sarv qading mengizli sanavbar chamanda yo'q...

Ey jafodin bir zamon ko'ngli pushaymon bo'limg'on,

Qoni bag'rim zarrayi qayg'ung bila qon bo'limg'on

matla'li g'azallariga muxammas bog'lagan.

Shuningdek, «Gul va Navro'z» dostoni ham Lutfiyga nisbat berilgan. Mazkur dostonning muallifi haqidagi bahslar uzoq yillardan beri davom etib kelmoqda. (Bu sohadagi bahsni adabiyotshunos Y.Is'hoqov «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalida e'lon qilingan «Gul va Navro'z»ning muallifi Lutfiymi? (1972, 1-son) maqolasi bilan boshlab berdi. Shundan so'ng zikri o'tgan jumalning o'sha yildagi 2,3,4-sonlarida S.Erkinov, A.Rustamov, E.Fozilovlarning maqolalari chop bo'ldi. Biroq munozara yakunlanmay, ora yo'lda qolib ketdi...) Taniqli adabiyotshunos A.Hayitmetov Shayx Ahmad Taroziyning «Fununul balog'a» ilmiy asarining qo'lyozma nusxasiga asoslanib, «Gul va Navro'z» dostonining muallifi xususida quyidagilarni bayon etadi: «Bu asar («Funun ul- balog'a»-R. V., H.E.)» yordamida endi «Gul va Navro'z» dostonining muallifi masalasi ham hal etilishi mumkin. Qo'lyozmaning 110-varag'ida «Gul va Navro'z»dan quyidagi mashhur baytlar keltirilib, ularning Mavlono Haydar, ya'ni Haydar Xorazmiyga tegishli ekanligi aytilgan:

O'shal kunlarki, vaqtim erdi darham,

Buzulg'on bu ko'ngulda ming tuman g'am.

Parishonlig' bila holim mushavvash,

Tiriklik nomuloyim, umr noxush.

Na bir hamrohkim, ul hamroz, bo'lg'ay,

Na bir hamdamki, ul damsoz bo'Ig'ay.

Bu fikrni «Muxtasar» risolasida Zahiriddin Muhammad Bobur ham ta'kidlab, mazkur asar haqida gap borganda, «Mavlono Abdul Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z»i deb o'tgan edi» (Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti, Toshkent, 1996, 25-26-betlar). Ko'rinaradiki, tadqiqotchi doston muallifi haqida qat'iy fikr bildirmaydi. B. Valixo'jayev ham o'z tadqiqotida mazkur masalaga e'tibomi qaratadi. Olim Bobur Mirzo va Shayx Ahmad Taroziyalarning ma'lumotlariga asoslanib, Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviyning xamsachilik an'anasini davom ettirib, o'zbek tilida beshlik yozishni niyat qilgani va ikki doston yozganini ta'kidlaydi hamda u quyidagi umumlashma – xulosalarni bayon etadi: «Yuqorida ko'rilmaganidek, «Gul va Navro'z» dostoni Lutfiy qalamiga mansub emas. Shuning uchun 1941 yilda nashr ettirilgan «O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi»ning birinchi tomidagi Lutfiy bo'limida u tilga olinmagan. Shunday qilib, Mavlono Lutfiy tomonidan yaratilgan va bizgacha ma'lum bo'lgan asarlari she'rlar devoni, «Zafamoma» taqimasi bo'lib, bulardan «Zafarnoma» tarjimasi tugallanmay qolgani tufayli bizgacha yetib kelmagan. Turkiy va forsiy she'riy devonliridan esa turkiy devoni yetib kelgan, forsiysi esa hozircha noma'lum bo'lib, undan ayrim misollar turli majmua va tazkiralarda keltirilgan, xolos» (Valixo'jayev B. Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy. Samarqand, 1999, 35-36-betlar). Shunday qilib, ikki nodir adabiy manba: «Funun ul-balag'a» va Bobur Mirzoning «Muxtasar» risolasida Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z» nomli doston yozganligi e'tirof etilgan bo'lsa-da, Lutfiyga nisbat berib kelingan shu nomdagi doston muallifi masalasi to'la yechimini topganicha yo'q.

Lutfiy she'rlari Alisher Navoiygacha yaratilgan o'zbek mumtoz adabiyotining g'oyaviy va badiiy jihatdan, o'ziga xos uslubi nuqtai nazaridan eng yuksak namunalari sanaladi, Shoir, ayniqsa, g'azalnavislikda shuhrat qozonadi. Turkiy adabiyotda vujudga kelgan tuyuq janri taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

1.3. Lutfiy lirikasining mavzu va g'oyalar olami

Lutfiy g'azalnavis sifatida Sharq adabiyotida barqarorlashgan adabiy-estetik an'analar bilan xalq og'zaki ijodiyoti tajriba tamoyili va usullarini nihoyatda mohirlik bilan muvofiqlashtirgan. Shu boisdan ham uning g'azallarida milliy histuygular nurlanib, insoniy dard, armon, qayg'u va shodlik tasviri takrorsiz bir ta'sirchanlik kasb etgan. Lutfiy nainki gazallarida, ruboiy, tuyuq, qit'a, fardga o'xshash boshqa janrlardagi she'rlarida ham nafosat hissi shakllangan, did va saviyasi baland kishilarning – zukko va hayotsevar xalq vakillarining fikru tuyg'ularini tarannum etgan. Shoirning:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,¹

Qondur jigarim, xoh inon xoh inonma, -

kabi misralarini o'qiganda, ularning bundan bir necha asr muqaddam yozilganiga ba'zan ishonish ham qiyin bo'ladi. Chunki ular shu darajada sodda, og'zaki nutqqa yaqin va kitobiy bezakdorlikdan yiroq va samimiyyidir. Lutfiy devonidagi bosh mavzu ishq va asosiy maqsad oshiqning hasbu holini tasvirlashdan iborat bo'lsada, shoir deyarli har bir she'rida mavzuga yangicha yondashib, betakrorohanglar yaratadi, mohiyatiga mos poetik obrazlar topadi, bir-biriga o'xshamaydigan badiiy san'atlarni qo'llaydi. Lutfiy devonida tashbeh, talmeh, tazod, iyhom, xususan, irsolı masal san'ati namoyon bo'lgan. Lutfiy ruboiy, tuyuq, qit'alarini ham san'at namunasi maqomiga ko'tara olgan. Yaqin-yaqingacha «Gul va Navro'z» dostoni Lutfiy asari deb kelingan edi. Keyingi tadqiqotlar natijasida bu doston muallifi Haydar Xorazmiy ekanligi aniqlandi. Lutfiy – turkiy she'riyatda maktab yaratgan san'atkor. Bu ijod maktabidan Alisher Navoiy va Mirzo Bobur saboq olishgan. Roqim, Amiriyl, Sulotonxon to'ra Ado, Tabibiy singari shoirlarning devonlaridan Lutfiy g'azallari ilhomida bitilgan muxammaslar joy olgan. Lutfiy she'riyatining

¹ Lutfiy. Sensan sevarim. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 22-bet. Keyingi o'rinnlarda mazkur nashrga murojaat qilinadi va sahifalar qavs ichida ko'rsatiladi.

ta'siri faqat O'rta Osiyo bilan chegaralanib qolmasdan, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga ham yetib borgan. Atoqli turk olimi M. F. Ko'prulizodaning e'tirof etishicha, Lutfiyning she'rlari yolg'iz chig'atoy shoirlari orasida emas, balki «Xarobot» muallifi Ziyo Poshoga qadar bo'lgan usmonli turk shoirlari orasida ham zavq bilan o'qilgan.

Muhabbat – Lutfiy g'azaliyotining asosiy mavzuidir. Shoir mana shu umrboqiy mavzu atrofida hayot go'zalligidan zavqlanish, tabiatning fusunkor manzaralaridan bahramand bo'lish, odamiylik, yuksak insoniy fazilatlar: mehr-muhabbat, vafo va sadoqat kabilar haqida keng mushohada yuritadi, Olam va odam xususidagi teran mulohazalarini badiiylashtiradi. Lutfiy mumtoz adabiyot an'analari, xalq og'zaki ijodining beba ho durdonalaridan bahramand bo'lib g'azaldagi markaziy obraz-ma'shuqani ohori to'kilmagan baytlarda tavsif etadi. She'r qahramonining turli holat va kayfiyati, ruhiy kechinmalarini hayotiy misollar asosida yorqin tasvirlaydi. Shuningdek, g'azallarida davrning ijtimoiy-siyosiy masalalari haqida ham fikr yuritadi. Shoir g'azallarining o'ziga xos xususiyati ko'proq ma'shuqa obrazi tafsifida namoyon bo'ladi. Bunda ijodkor yorning husn bulkida yakto ekanligini Parvardigorning yaratuvchanlik xususiyatiga bog'liq holda tasvirlaydi:

Haq ul kunkim jamoling bor etibtur,

Jahon husnun borin sizga beribtur.

Pari-yu odami mundoq xo'b ermas,

Farishta go'iyo ko'ktin enibtur.

Quyosh oytek yuzungning xijlatidin,

Qochib, to'rtunchi ko'k uzra chiqibtur(58).

Shoir tengsiz husn-u malohat sohibi bo'lgan ma'shuqani tafsifiashda ilohiy timsollarga juda ko'p murojaat etadi. Shu timsollar bilan bog'liq islomiy

qarashlardan mahorat bilan foydalanadi. Jumladan, Yusuf alayhis-salom go'zallik timsoli bo'lsa, ma'shuqa chiroyi shoir nazarida undan-da go'zaldir:

Zotinda haq izhori kamolot qilibtur,
O'z nuri bilan suratingizni yaratubtur.

O'n juzv turur erdi bori husn-u malohat,
Qismat kuni haq to'qquz ulush sizga beribtur.

Bir juzviki Yusufga tegib erdi, chu bordi,
Oning uchun ul ham sanga meros qolibtur(53).

Lutfiy ma'shuqa ko'rkingin vasfi zaminida Tangrining buyukligini ulug'laydi. Olam uning tajalliysi ekan, borliqdagi barcha go'zalliklar uning irodasi va sifatlari bilan bog'liq holda mavjudligini tasavvur etadi. Ijodkorning «Nortek yangoqing shavqidin jonlar bari afgor erur» misrasi bilan boshlanadigan g'azali shunday mohiyat kasb etadi:

Chu zulfungizdin bog'ladim zunnor tarsolar bikin,
Imonim ortar dam-badam, bu ne ajab zunnor erur?

Ko'rsang eshikingda meni behud tushub, ayb etmakim,
Aqlimni g'orat qilg'uchi ul g'amzai ayyor erur.

Iso falakka oshti chun bo'ldi labing jon berguchi,
Sharmandalikdin ketmasa ko'kta anga ne bor uchun.

Keldim eshikka, orzum yuzung durur, ko'rguz chiqib,
Kelginki, Lutfiy hojati uchmoq emas, diydor erur (57).

Shoir zunnor timsolidan mahorat bilan foydalanib, uni yor zulfiga tashbeh etarkan, tarsolar singari bu zunnor – zulfni bog’laganida haqqa bo’lgan iymone’tiqodi tobora ortib borishi sababidan ajablanadi. Ma’shuqa labining jon baxsh etishi oldida shunday a’mol sohibi bo’lgan Iso Masihning uyalishi talmeh san’atining ajoyib namunasi bo’lib, Lutfiy g’azalda ilgari surgan ilohsevarlik g’oyasining badiiy ifodasiga g’oyatda mos kelgan. Maqtadagi xulosa ham shu fikrning tadrijiy takomilidir. She’r qahramoni vahdat orzusi bilan yashagani bois u jannatdan voz kechishga ham tayyor. Malikul-kalom g’azallarida tabiat tasviri vositasida she’r qahramoni ichki kechinmalarini badiiy tasvirlash ham yetakchilik qiladi:

Yoz fasli barcha shod-u ko’nglumiz g’amnok erur,
Gul bikin jon ko’nglaki hijron elindin chok erur (51).

Lutfiy g’azal yaratishda uslub ravonligi, muxtasarlarga e’tiborni qaratadi. Shu bois shoirning aksariyat g’azaUari 5-7 baytdan tarkib topgan. Shoirning qofiya, radif tanlash, so’zlarning aruz vazni talablariga ko’ra o’z o’rnida ishlatishdagi mahorati uning g’azallarida yorqin ko’zga tashlanadi. Ijodkor qofiyalarning rang-barang, yoqimli bo’lishi va radifga mazmun jihatidan mustahkam bog’lanishi, ayni choqda radif she’rdagi asosiy g’oyani bevosita ifodalashga xizmat qilishiga e’tibor qaratadi. Lutfiy ijodida bir necha so’zlardan iborat bo’lgan radifli g’azallar ko’p uchraydi. Biroq bular takror sifatida g’alizlikni keltirib chiqarmay, g’azalga musiqiylik, alohida ravonlik va ohang baxsh etadi:

Meni shaydo qiladurg’on bu ko’nguldur, bu ko’ngul,
Xog-u rasvo qiladurg’on bu ko’nguldur , bu ko’ngul (146).

Yuqoridagi satrlar bilan boshlanuvchi g’azalda qo’llangan «qiladurg’on bu ko’nguldur, bu ko’ngul» radifi 5 so’zdan tarkib topgan bo’lib, shundan ikki so’z takrorlanib kelishi bilan she’r uslubining ravonlashuviga sababchi bo’lgan.

Shuningdek, radif oshiq – she'r qahramoni ko'nglining ishq asiriga aylanganiga urg'u berishga xizmat qilgan. Lutfiy g'azallarida xalqning uzoq davr mobaynida hayotiy tajribalari asosida vujudga kelgan maqollar, obrazli iboralar, urf-udumlar va xalqona ertaklardagi badiiy lavhalarga ishoralar, hikmatli so'zlar tez-tez uchrab turadi. Shoir xalq maqollari, hikmatli so'zlarini g'azalning janriy xususiyati, mazmun hamda tasvir taqozosiga ko'ra yo aynan yoki qisman o'zgartirgan holda qo'llaydi. Ijodkorning «Bir gul qanikim, ollida yuz xor topilmas», «Sevingandan gul o'z o'nriga sig'mas», «Suvsizin ne yuz boliq o'lsa bahrga ne bok emr», «Yo meni tuproq yo rizqi parishon tortadur» singari qator misralarida shunday holatni kuzatish mumkin. Lutfiy irsoli masal va talmeh kabi badiiy san'atlardan foydalanib, xalq og'zaki ijodiga ham murojaat etadi:

El yuziga boqsalar o'larmen,
Kurshedni netay yoshursa bolmas (108).

Lutfiy o'zbek adabiy tili ravnaqiga munosib hissa qo'shgan ijodkordir, shoir so'zning o'ziga xos nozik qirralarini teran anglab, badiiy jihatdan barkamol g'azallar yaratdi. Shuningdek, ijodkorning tildagi jinsdosh va ko'p ma'noli so'zlardan mahorat bilan foydalanib yozgan tuyuqlari alohida ahamiyatga ega:

Ko'ngluma bar yonki boqsam, dog'i bor,
Nar necha dardimni desam, dog'i bor.

Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Biz sari bo'ldi firoqing dog'i bor (349).

Shoir «dog'i» so'zidan dastlab «uaga», ikkinchi misrada «tag'in» va to'rtinchi misrada esa «tog'» ma'nolarini ifodalash uchun foydalangan.

Lutfiy she'riyati, ayniqla, g'azallari keyingi asrlarda yashab ijod etgan shoirlar uchun ilhom manbai bo'lib qoldi. Alisher Navoiy ijodkor g'azallaridan

adabiy ta'sirlanib, ularga muxammas va musaddaslar bog'ladi. Ulug' ozarbayjon shoiri Fuzuliy (XVI asr) va o'zbek shoirlaridan Munis, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Furqat kabi ijodkorlar Lutfiy adabiy merosidan bahramand bo'lishdi.

II bob. Lutfiy lirkasida badiiy tasvir vositalari

2.1. Tazod va talmeh

Tazod sharq mumtoz adabiyotida keng qo'llanilgan usul bo'lib, bir-biriga zid narsa va hodisalarni yuzlashtirish demakdir¹. Lekin yana shu qarama-qarshi qo'yilgan narsa va hodisalar ayni vaqtida o'zaro uzviy bog'langan bo'ladi.

Adamdin emdi seningtek vujuda qayda kelur,
O'lar tirik seni ko'rsa, va le o'lik tirilur (126).

Lutfiy xalq orasidagi yahshi narsani maqtaganda «o'likni tiriltiradi» degan ta'biri asosida tazod yaratgan. Yordagi husn-qomad shu darajadaki, u o'likka jon bag'ishlaydi, uni ko'rgan tiriklar esa o'ladi. O'lish va tirilish, o'lik va tirik qarama-qarshi tushunchalardir. Ammo bu hodisalarning birgina sababchisi – ma'shuqadir. Mumtoz shoirlarimiz va xususan Lutfiy ijodida tazod yetakchi badiiy vositalardan biri sifatida o'rini qo'llanilgan.

U ba'zan aniq predmet yoki hodisa tasvirida ishtirok etsa, ba'zan kishi holati va tasavvurlarining poetik ifodalashda yordam beradi

Lutfiy lirkasidagi tazodni o'rganar ekanmiz tazod bir qancha ko'rinishlarga ega ekanligi ko'zga tashlanadi. Tazod oddiy, murakkab, aralash, obrazli va parallel tarzda bo'ladi. Tazodning bu xillarini alohida-alohida misollar yordamida ko'rib chiqaylik. Oddiy tazod deb oddiy so'zlarga asoslangan qarshilantirish usuliga aytiladi

Necha bu Lutfiy qulga javr etarsan?
Vafo qilkim, vafo haddin oshibtur (58).

¹ A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent: Sharq, 1999, 55-bet.

Dunyo go'zaliga atalgan muhabbat qo'shiqlarini kuylashda ma'no va shakl birligi uchun kurashgan shoir o'z maqsadini yoritishda boshqa badiiy vositalar qatorida tazoddan ham foydalanadi.

Xorlik haddin oshurmang, chunki izzat yo'ldadur,
Otingiz na'linda bizni hoki roh aylab o'tung. (132)

Yuqoridagi misollarda «vafo»ga «jafo», «xorlik» va «izzat» qarama-qarshi qo'yilib, tazod usuli ishlatilgan. Xo'rlangan oshiq yorning jafolari haddan oshganligidan shikoyat qilib, suyukli yordan izzat va vafo qilishini so'raydi. Oddiy tazodda tushinilishi oson bo'lgan so'zlar baytning bir misrasida qarshilantirilgan. Masalan:

Sevar jonim, pari paykar habibim,
Visol-rohatim, hajri baloyim. (147)

Agar oddiy tazodda qarshilanuvchi tomondagi so'z yakka holda bo'lasa, murakkab tazodda ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi. «Yo rab ne ajab» g'azalidagi mana bu bayt murakkab tazoddga misol bo'la oladi:

Hech yerda qarorim yo'q edi ko'yida turdim,
Jannatda muqim o'ldimu dildora yo'liqdim. (158)

Birinchi qarshilanuvchi tomon ikki so'zdan, ya'ni «qarorim yo'q so'zlaridan iborat bo'lsa, ikkinchi qarshilanuvchi tomon ham ikki so'zlidir, ya'ni «muqim o'ldim». Real hayotni ulug'lab shu dunyo go'zalini sevgan shoir bu g'azalida ham muhabbatni olqishlaydi, maqsad yo'lida tazoni o'rinli ishlatadi. murakkab tazodda fikrlar qarama-qarshi qo'yiladi, shuning uchun tazodning bu turini fikriy tazod deb atash mumkin. Lutfiy lirikada mahbubaning faqat tashqi go'zalligini chizish bilan

chegaralanib qolmay, uning ma'naviy tomonini, ichki dunyosini ochib berishga intiladi.

Bir nafasda o'lgay erdim furqatingning dardidin,
Vasl umididur menga o'lmakni dushvor aylagan. (191)

Aralash tazodda tazod boshqa stilistik vositalar bilan aralash holda uchraydi. «Kozing qorasi» g'azalidan olingen mana bu misralar aralash tazodning yorqin misolidir:

Kozing qorasi fitna, va le oqi balodur
Jonlar oladur, vah ne balo ko'zi qarodur. (52)

Misolimizdagi tazod «qarosi-oqi» tardi aks stilistik vositasi «qaro-balo» bilan birgalikda kelgan. Tazod yaratuvchi uchun katta imkoniyatlar beruvhi vositalardan bo'lib, unidan to'g'ri foydalanish ijodkorning uslubi, ma'naviy dunyosi va san'atkorlik kamoli bilan bog'liqdir.

Obrazli vositalardan biri ishtirokida hosil bo'lgan qarshilantirish usuli **obrazli tazod** deyiladi. Obrazli tazod mubolag'a, o'xshatish, istiora kabi vositalardan biri negizada ko'rilgan bo'ladi.

Shakkar og'zingim kichiklikda yoshurdi zarrini,
Ul quyosh yuz uzra gah paydo u, goh pinhon erur. (54)

Bu baytda tazod «quyosh yuzli» yorning og'zi, labini kichikligini mubolag'ali ifodalashda qo'llanilgan. Huddi shu tazod shoirning «ey tajalliy birla xusnung» g'azalida o'rtangan oshiq kayfiyatini izohi uchun keltirilgan. Gohida «paydo», gohida «pinhon» bo'lishlikning manbai – yorning kichiklikda zarrani yashirgan og'zi.

Yo'qtur ajab gar olding bechora Lutfiy ko'nglun,
Husnung bila chu yuz ming shahni gado qilursen

Lutfiy kibi gar sarvu sihi ko'rsa qadingni (185),
Ozod o'zini qul qilur ul sarvu gulandom. (155)

Bu misollardan ko'rinaridiki, blmubolag'ali tazod xodisalarni bo'rttirish yo'li bilan qarshilantirishdan kelib chiqadi . Yordagi husn shohni gado qilishga, ozod kishini qul qilishga qodir.

Lutfiyning mashhur «Bu ko'nguldur, bu ko'ngul» g'azalida o'xatishli tazodning chiroyli namunasini o'qiymiz:

O'qdayin qomatimizni qora qoshlig'lar uchun
Muttsil yo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngil. (146)

O'q va yoy xususiyatlari jixatidan, ya'ni o'qning to'g'ri bo'lishi, yoyning egikligi o'zaro qarshilantirilgan . O'xshatishli tazod narsa va hodisalarni o'xshatish yo'li bilan qarshilantirishga tayanadi . Masalan:

O'qdek bo'yimiz egildi yoydek
Ul fitnalik ikki toqingizdin. (146)

Bu baytdagi o'xshatishli tazod o'ziga xos ma'no kasb etadi. Oshiqning to'g'ri qaddi yorning fitnali qoshi tufayki yoy misol egiladi. Ma'lumki, ko'pgina mumtozlarimiz ijodida ma'shuqanining qoshi yoyga nisbat beriladi . Lutfiy bu an'anani tazod yordamida yangicha ishlagan.

Oy yuzungga zulf o'zin solsa ne tong bo'lg'ay, vale
Tun uzun bo'lsa nechakim subhidamdin chora yo'q. (120)

Tun va subhidam so'zlari o'zaro qarshilantirilgan . Xijron alamlaridan ezelgan oshiq visolga intiladi, lekin buni yo'li mushkul . Sochning yorning yuziga tushib yopishi,tun uzun bo'lib tong otishi qiyinlashishiga o'xshatiladi.

Tazod istiora tarzida ham kelishi mumkin:

Umrum kuni agarchi firoqingda shom erur,
Shodu ko'zungdin uyqu ko'zumga harom erur. (50)

Yuqoridagi misolda tazod «kun» va «shom»dir,ayni xolda,bu so'zlar «umr kuni» «umr shomi » istiorasini yuzaga keltiradi. «Kun» so'zi kunduz ma'nosini bildiradi, «shom» so'zi umrning ayriliqdan tugallashini anglatadi.Demak,»kun» va «shom» so'zleri ko'chma ma'noda ham qo'llanilib,istiora yuzaga kelgan.Istiorali tazodning murakkabroq ko'rinishlari ham mavjud:

Yor istar edim,uchradi nogah paqibe,
Gulni tiladim, Lutfiy, vale hora yo'luqtim. (158)

Birinchi misrada yor-raqib tazodi keltirilgan .Lirik qahramon yorni izlab,raqibga uchrab qoladi.Shu hodisa ikkinchi misrada gulni xohlab, tikonga yo'liqib qolishga o'xshatiladi. Obrazli tazod shuni ko'rsatadiki, stilistik vosita hisoblangan tazod goho obrazli vositalar doirasiga ham o'tadi.

Parallel tarzli tazodda qarshilanuvchi so'zlardan biri baytning birinchi misrasida,ikkinchi baytning ikkinchi misrasida keladi va qarama -qarshi so'z parallelizmni hosil etadi.

Ko'z ko'ra o'lтурмак одам о'г'лини душвор ерур,
Nedin ul g'amzangga mundoq sahlu oson ko'rнадур. (77)

«Dushvor» va «oson» qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan tushunchalar,ya'ni tazoddir.

Xush durur mehru vafo sen kibi nozuk kishidin,
Mayl ko'p qilma jafog'a,necha zahmat bo'lsa. (14)

Shoir lirikasida hayotdagi shodlik va go'zallikkardan bahramand bo'lismotivlaridan tashqari o'zi yashagan davrdagi yaramas odatlardan shikoyat qilish izlarini uchratamiz .Asarlardagi bunday motivlar ko'pincha yorning e'tiborsizligi,jafosi,vafosizligidan norozi bo'lism tarzida boradi.

Lutfiy lutf nomli stilistik vositaning ustasigina bo'lib qolmay,balki tazodning ham mislsiz ijodkori ekanligi ma'lum bo'ldi .Mana bu misolga xalqning odati,ya'ni xushidan ketgan kishining yuziga suv sepib xushiga keltirish odati asos qilib olingan:

Ko'nglungiz etti ko'zi vah ne bo'ldi,tengri uchun,
Dudog'idin meni bir suv urub davo qilsa. (12)

Mashhur tarixchi Xondimir o'z zamonining malikul-kalomi,lutfkor shoir shoir haqida «Mavlono Lutfiy so'z lutfida yagonai davron edi» -deb yozgan edi.Lutf nomidan o'ziga taxallus olgan shoir lirikasini ko'zdan kechirar ekanmiz,tazodning turli ko'rinishlariga duch kelamiz. Biz tazodning beshta oddiy, murakkab, aralash,obrazli va parallel turini ko'rib chiqdik. Shuningdek, obrazli tazodning mubolag'ali,o'xshatishli, istiorali ko'rinishlarini ham qayd qildik. Bundan Lutfiy lirikadidagi tazod shularginadir degan xulosa tug'ilmasligi kerak. Zeroki,Lutfiy lirikasining san'atkorlik siri-asrorini mukammal va to'la aniqlash jiddiy tadqiqotlar talab etadi

Talmeh – arabcha yashin chaqnashi, ko'z qirini tashlash, yalt etib qarash degan ma'nolarni ifodalaydigan so'zdir. Talmeh – mumtoz she'riyatda keng qo'llanilgan ma'naviy san'atlarning eng xarakterlilaridan biri bo'lib, Lutfiy ijodiyotida ham ma'lum o'rin egallaydi. Talmeh san'atkorga bir ishora bilan chuqur ma'noni ifodalish imkonini beruvchi san'atdir.

U istiora, tashbeh kabi san'atlardan farqli o'laroq, ijodkorga tarixiy yo afsonaviy voqealarga, masallar, mashhur asarlar va qahramonlar obraziga ishora qilish va shu yo'l bilan o'z fikrini mojaz holda kuchaytirish uchun imkoniyat beradi.

Hamdard ila holimni deyinkim, tusha borar,
Ul damki, yo'luqsa menga mahshar farhod. (28)

Lutfiy g'azalidan olingan bu baytda hajri-firoq ahvolini tang qilgan lirk qahramonning holatini yorqinlashtirish maqsadida mashhur Farhod afsonasiga ishora qiliyatir.

Talmeh san'atini qo'llashdan ko'zlangan maqsadi, shu voqeа yoki tipning konkret sharoitdagi ahvolini qadimgi yoki yaqin o'tmishdagi ma'lum va mashhur hodialar foni yoniga ko'chirib, o'z fikrini ham aniqroq, ham to'laroq, ham mubolag'aliroq, tarzda gavdalantirishdan iborat.

Talmeh ma'no va tuzilishiga jo'ra ochiq, yashirin, sodda va murakkab bo'lishi mumkin.

Diniy afsonalarda Iso Masihoning o'z nafasi bilan o'lganlarni tiriltirish, ularga jon bag'ishlash qobiliyatiga ega bo'lган, deyiladi. She'riyatda sevimli yor va uning labini jonbaxshlik yuzasidan Iso Masihga o'xshatiladi. Yorning visoliga erishishni mubolag'ali tasvirlar ekan, Lutfiy ajoyib talmeh namunasini keltiradi:

Masihu Xizr edi ham birla jonbaxsh
Alar ul damdau bu damda sensan. (92)

Mangu yashar kim ki ko'rар sizni bir.
Vah ne Xizr chashmai hayvonisiz. (56)

Chashmi jom la'link o'rgay erdi Xizr agar
Ichkay erdi boda ulkim obihayvon tortadur. (48)

Xizr – afsonaga ko’ra «obi hayvon» tiriklik suvini izlab topgan va undan ichib, doimiy tirik yurgan payg’ambarning nomi. Xizr kishilarga doimiy yo’ldoshlik bilan mashhurdir. Yuqoridagi baytlarda yana shu payg’ambar obraziga nazar tashlab, shoir oddiy talmeh yaratgan.

Yashirin talmehda esa o’quvchi konkret shaxsga duch kelmay, tekstdan o’z aqli va xotirasiga tayangan holda avtor ko’zda tutgan subyektni tanib oladi. Masalan, Lutfiy quyidagi baytda Yusuf qissasiga sha’ma qiladi:

Yaqub bikin ko’p yig’idin qolmadi sensiz
Nuri basarim,xoh inon, xoh inonma. (33)

O’quvchi kenja o’g’li Yusufdan ayrilib, uning firoqida cheksiz ko’zyoshlari to’kishi oqibatida ko’zлari nogiron bo’lib qolgan Yaqubning holatini eslashi bilan oshiq – shoirning sevgilisi ishtiyoqida qanday ahvolga tushib qolganligini darhol ko’z oldiga keltiradi.

Bir juzvki Yusufga tegib erdi, chu bordi,
Oning uchun ul ham senga meros qolibtu. (33)

Ushbu baytningmazmuni g’azal bilan to’la tanish bo’lgan o’quvchiga tushunarli bo’ladi. Afsonaga ko’ra, Yusuf juda go’zal bo’lgan . zulayho Yusufning o’tar yo’liga chayla qurib unga mushtoq bo’lib turgan bir paytda, Yusuf husniga mag’rurlanib, unga boqmay o’tadi . She’riyatda ko’pincha, husn –chiroy kamoloti namunasi sifatida Yusuf esga olinadi. Bizning misolimizda shoir aytmoqchiki, Yusufning husni ma’shuqaning husnining o’ndan biriga teng xolos, ya’ni husn – malohat o’n bo’lakka bo’linib, undan to’qqiz ulushi ma’shuqaga berilgan, bir bo’lagi esa Yusufga. Yusufdan keyin, hatto undagi husni-malohat ham endi ma’shuqaga meros qolgan.

Yuqoridagi baytlarda bir afsonaviy qahramon va u haqidagi turli rivoyatlardan Lutfiy turli maqsadda va turlichay aspektida foydalangan.Konkret

talmehda aniq,tarixan yuz bergan voqealar yoki tarixiy shaxslar tilga olinib,voqea yoki obraz holatini yanada yorqinroq ifodalashga erishiladi.Ushbu baytga konkret talmeh asoslidir:

Eshikingdir baxtu davlat,xoki poying afsarim,
Topmadi Jamshedu Afridun bu qadru john. (99)

Ishora qilingan obrazlar Jamshid va Afridun qadimgi Eronning ulug' va afsonaviy podshohlardandir.

Ma'shuqanining oyoq osti -xoki poyi oshiq uchun tojdir.Oshiq-ma'shuqanining eshididan topgan baxtu davlatni Jamshid va Afridun erishgan martabadan yuqori qo'yadi.

Murakkab talmeh ikki shaxs haqidagi voqea - hodisalar yoki o'sha kishilarining o'zlarigina esga olinib,qayd etilgan talmehdir. Bunday talmehlarni juft talmehlar ham deb atash mumkin.

Tog'dek oshiqni kuydurdung bu Shirinlik bilan,
Mundin ortuqroq meni bir yo'li sen farxod qil. (66)

Lutfiy ko'pincha yorning jamoli va sifatlarini traditsion yoki afsonaviy obrazlarga qarama-qarshi qo'yib, yangi obrazlar yaratadi,bu obrazlar an'anaviy yoki afsonaviy obrazlar ustidan «g'olib» chiqadi.

Demak, san'atkor talmeh san'ati orqali lirk qahramon holati va xarakterini bir lahzada ko'z o'ngimizda jonlantirishga qodirdir, buni u adabiy, tarixiy va mifologik qahramonlarni eslatish tufayli bajaradi.

2.2. Husni ta'lil va mubolag'a

Husni ta'lil (husni-ko'rк, chiroy; ta'lil – asoslash, isbot, vaj) istilohi arab tilidan olingan bo'lib,asoslash ko'rki yoki chiroyli asoslash degan ma'noni beradi.

Filologiya fanlari doktori Hodi Zarif bu san'at haqida ma'lumot berib yozadi: «Ilgarigi mahalliy siyohlarda shira va yelim bo'lar edi. Bu siyoh bilan yozilgan kitob nam tortsa, varaqlari bir-biriga yopishib qoladi. Bizning iqlimi issiq mamlakatlardagi zax hujralar, xonaqolar va uylarda qo'lyozma kitob varaqlarining bir-biriga yopishib qolganligini juda ko'p uchraydi. Lutfiy bu holni husni ta'lil yo'li bilan juda badiiy ifoda etgan:

Shirinligidin qog'ozi bir-biriga yopishti
Irning sifatin qaydaki yozdim varaq ichra. (17)

Lutfiy quyidagi baytni yaratishda husni ta'lilga murojaat qilar ekan, bir faktni keltirib, uni mutlaqo dahli bo'limgan biror hodisa bilan dalillashtiradi:

Og'zing sifatin qilurda xoma
Ko'p totlig' uchun yorildi tili. (298)

Boshqacha qilib aytganda, xoma (qalam) og'zing vasfini yozayotgan edi, og'zingning shirinlligidan qalamning tili yorildi demoqchi bo'ladi shoir. Bu bayt shirinlik haqida gap ketganda ishlatiladigan xalq iborasi (tilni yoradi-ya) singdirilgan:

Zanburi asal og'zi to'la shaxd ekanindan,
Irningni ko'rib, bemaza deb, bol to'kubdur. (63)

Yor labining ta'midan voqif bo'lgan bolari «mening asalim shirin emas ekan» deb o'z og'zidagi bolini to'kkani.

Mavlono Lutfiy quyidagi baytni husni ta'lil san'atini qo'llab, ajoyib poetik asoslashni namoyish etgan:

Yuzingdin lolarang eltib uyolib shahrga kirmas,
Aning bo'ynin kishi bog'lab keturmog'uncha sahrodin. (181)

Mashuqa yanog'i tufayli xijolatli lola sahrolarda sargardon. Shoir lola ma'shuqa yuzidan rang o'g'irlab olgan deb «da'vo» qilmoqchi va buni lolaning sahrodan shaharga bog'lab olib kelinishi bilan asoslamoqda. O'quvchi yaxshi biladiki, lola husn va rang o'g'risi emas.U tog' va cho'llar giyohi. Shunga qaramay, ma'shuqa va lola ko'rkiniz kuchaytirish uchun shoirning topgan ajoyib isbotiga yurakdan tan beramiz. Zotan, husni ta'lil-asoslash chiroyi.

Yuzingni k'orib gul xijl o'lg'oni jihatdin,
Gohi qizorur, gohi ishi handa dugulmu. (267)

Yorning tashqi portretini tasvirlashdagi mana bu kuchli mubolag'ali husni ta'lilga e'tibor bersak, shoir mahoratiga tahsinlar o'qiymiz.

Gul qamariningdin o'g'urlab oldi jamol aning uchun,
Shohi rabe' oni tikan dorg'a o'g'ritek osar. (96)

Shoirning yozishicha, gul yorning yuzidan jamol o'g'irlagan. Shuning uchun ham uni bahor podshosi tomonidan tomonidan qurilgan dorga (Gul yog'ochlariga) oyoqlaridan osib qo'yilgan.

Sarvning shabboda esgandagi holatiga shoir quyidagicha izoh beradi:

Qomatingning qullig'inda yosh edi, ulg'aydi sarv,
Boshi titrar emdi hijlatdin ani ozod qil. (141)

Husni ta'lil san'atini yaratishda jonsiz narsalarni jonlantirish va ularni odamlar bilan munosabatga jalb qilish huquqiga san'atkor ega bo'ladi.

Labingdin chun suchuklik qand o'g'urlar,
Solurlar el ani suvgaga yalang'och. (31)

Qandni suv-choyga solib ichish kundalik mashg'ulotimizdir. Lutfiy bu hodisani: qand yor labidan chuchuklik o'g'irlagani uchun uni jazolash amaliyotiga yo'yadi, ya'ni qandni suvgaga tashlab eritilishini «uning yor labidan shirinlik o'g'irlagani» bilan asoslaydi, lekin bu asos tog'ri emas, chunki qand shirinlikni o'g'irlamaydi.

Kumushni ombir bilan o'tga toblab olish zargarlar mashg'ulotidir. Shoir bu hodisani kumush yor bilagidan latiflik o'g'irlagani uchun qilinayotgandek asoslaydi:

Kumushchun lutf o'g'urlar soidingdin,
Tutub ambur bila o'tg'a solurlar. (69)

Quyidagi husni ta'lilda quyosh husnidan uyalib ko'kka qochib chiqadi.

Quyosh oydek yuzungnung xijlatidin
Qochib to'rtunchi ko'k uzra chiqibtur. (58)

«Sening o'tluq ko'zung sehri meni kuyduri savdodin» malai bilan boshlanadigan mashhur g'azalida Lutfiy yozadi:

Bilurmisenki, kun tushta ne uchun sayrdin qoldi,
Yuzingni ko'rди sarg'orib, ilikdan bordi sahrobin. (197)

Quyida shoir esa shoir husni ta'lil yordami bilan antiklerikal fikr yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi:

Qutlug oyog'ing yerga tegibdur oning uchun,
El yerga qo'yib bosh qilur barcha ibodat.

Yer uzra etak sudrab o'tibsiz oning uchun,
Tufroq ila har yerda ravo bo'ldi tahorat. (209)

Oyning yuzidagi dog'larga shoir quyidagicha baho beradi:

Tun kecha o'n to'rt tungi oyni ko'rmish yuzing,
Ushbu kun oyning jamoli ichra nuqson ko'rnatduri. (77)

Husni ta'lil san'atidan foydalanuvchi sa'natkor bir-biriga mutlaqo dahlil bo'limgan voqeа-hodisa, narsa-predmetlar orasidan shoirona aloqa-bog'lanish va sabab-vaj topadi. Ushbu san'atning ma'naviy emotsiyonal ta'siri shundaki, kitobxon o'zi kutmagan holda jozibali asoslash qarshisidan chiqib qolib, bexosdan zavqlanib «qoyil!» « deb jilmayib yuboradi.

Husni ta'lil asar mazmuniga o'ziga xos romantik bo'yoq beradi, oddiy narsadan jozibali xarakterli obrazlar yaratadi.

Mubolag'a – narsa yoki hodisaga xos xususiyatni oshirib, mahovat qilib tasvirlash. Mubolag'a obrazni bo'rttirishga va shu yo'l bilan asarning tasvir kuchini oshirishga xizmat qiladi».¹

Mubolag'a arabcha so'z bo'lib, uning ma'nosи lof urish, bo'rttirish demakdir. Mubolag'ada shaxs, voqeа va predmetlarning muayyan xususiyatlari bo'rttirib, kichraytirib, tasvirlanadi. Lutfiy g'azallarida biz mubolag'aning turli xillarini ko'ramiz. Bir necha misollar keltiramiz:

Zihi davlatliq ul ikki qoshingkim,
Kumush taxt uzra og'noshib yoturlar.

Og'zing o'lturdi tabassum birla bizni, tonmag'il,
Gar kishi o'lturmasa, ul ne uchun pinhon erur. (50)

¹ Anvar Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent: Sharq, 1999, 81-bet.

Husn elindin toq erur mehribon ikki qoshing,
Ko'rmadi yer yuzini kezgan munungtek juftu toq

Har sahar yorabdin ilkimni ko'tarsam yig'lab
O'rtanur ohim o'tingdin yetti firuzi ravoq. (58)

Mubolag'a obrazni bo'rttirishga va shu yo'l bilan asarning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Shoir ma'shuqaga qarab «Agar sening ko'ngling toshdan ham qattiq bo'lsada, mening ohimdan erib ketadi, chunki ohim tog'ni ham eritadi, sening ko'nglingga har bir kun ta'sir qilishi begumon» deb, yorni insofga chaqiradi:

Tog'ni eritur ohim asar qilg'usi bir kun,
Ko'ngling necha kun bo'lsa temur, tosh dag'i po'lod. (28)

Mubolag'ali tasvir folkloriga, epos qahramonlari tasviriga xosdir. Xalq og'zaki ijodidan baxramand mumtoz shoir Lutfiy badiiy til vositalaridan biri mubolag'adan ustalik bilan foydalanadi. Quyidagi baytda yorning yuzi nurli oyga, og'zi esa kishilarga umrbod tiriklik baxsh etuvchi obi hayvonga mubolag'ali o'xshatadi:

Oy yuzungni kunga o'xshatsam muvajjahdur dalil,
Obihayvon desam og'zingni erur malokalom. (72)

Mana bu baytdan ham yorning javru jafodidan shikoyat motivlarini o'qiymiz:

Bag'rim qonidin lola bitib tuprog'im uzra,
Bir-bir o'qug'ay qolmasa hech nomu nishonim. (75)

Lutfiy shaydo bo'lgan ma'shuqaning go'zalligi yuz ming shohlarni gado kelishga qodir:

Yo'qtur ajab gar olding bechora Lutfiy ko'nglun,
Husning bila chu yuz ming shahni gado qilursan. (86)

Yaxshilik saltanatiga sulton bo'lgan ma'shuqaning jamoliga barcha husn ahli qul bo'lsa,buning hech ajablanadigan joyi yo'q:

Husn ahli agar bo'lsa senga qul, ajab ermas,
Kim xo'bluq iqlimida sulton yetilibsan. (92)

She'riyat nazariyasida mubolag'a o'z mohiyatiga ko'ra uch turga bo'linadi.
Tablig'. Mubolag'aning bu turida amalda bo'lishi va ro'y berishi mushkul bo'lgan xususiyat va voqea-hodisalar tasviri beriladi:

Haq ul kunkim, jamoling bor etibdur,
Jahon husnin borin sizga beribtur. (58)

Ushbu baytda ma'shuqa kipriklarining tig'i va jodu ko'zlarining sehri mubolag'ali tasvir etilgan. Ko'rinish turibdiki, mubolag'a san'ati she'riyatda uning ma'no darajasini yuksaltirish uchun safarbar qilingandir. Avtor mubolag'a bilan konkret voqea yoki holatni kitobxon ongiga chuqurroq singdiradi.

Ig'roq. San'atkor faqat tasavvur qilish mumkin, amalda mutlaqo bo'lmaydigan xususiyat va narsa-hodisalarni qalamga oladi.

Ishq o'tida kuygan lirik qahramon o'z ahvolini quyidagicha bayon qilmoqchi:

Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey, siymbarim, xoh inon, xoh inonma. (22)

Oshiqning yuzi shu darajada za'faron, sarg'ayib ketkanki, bu holdan oltin ham yashirinadi:

O'qdayin qomatimizni qora qoshlig'lar uchun
Muttasil yo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul. (69)

G'uluv. Tasavvur qilish qiyin bo'lgan, amalda bo'lishi sira mumkin bo'lmanan hodisalarining tasviri asarda o'rinn oladi:

Chun hayolingning kechar yeri ko'zum daryosidur,
Kirpukimdin bog'ladim ul vajh ila sol ustina. (23)

Emdikim, tuproq bo'lmishdur eshikingda tanim,
Qaydadur hosil, ki ko'rgay davlatu johim mening. (64)

Mubolag'ali tasvir asosan ikki tamoyil asosida yuzaga keladi:
a) Harakat va holatni bo'rttirishga qaratilgan tasvir tug'ilgan to'g'ri bayon qilinadi:

Bir tutub zulfiingni yuz ming zahr topdim zulmidim,
Ore – orekim, yilon tutqang'a samdin chora yo'q. (60)

Yorning sochidan ushslashga botingan oshiq malomatlarga qoladi. Bu holni ilon tutib, zaharga duch kelgan kishining ahvoliga mubolag'ali o'xshatadi,

b) Muayyan belgi va xususiyatni kuchaytirishga xizmat qiladigan mubolag'a zamirida tashbihiy bog'lanish yotadi:

Ohkim bag'rim firoq o'ti uza bo'ldi kabob,
Majlisim nuqli g'amu anduhi ko'z yoshim sharob. (25)

An'anaga ko'ra,ko'ra,ma'shuqaning qaddi sarvga o'xshatiladi.Lutfiy mazkur baytda bunga e'tiroz bo'ldirib,yozadi:

Qaddingni bu Lutfiy demagay sarvi sihikim,
Yuz sarv aning olida xizmatga bo'libtur. (47)

Yor husnining tasavvurini beruvchi mana bu baytda ham mubolag'a san'tiga duch kelamiz:

Gul keldi yuzung davridakim husn sotay deb,
Aylandiyu hech yerda hech yerda xaridor topilmas. (54)

Ko'zimning yoshidin iymangil oxir,
Ki har bir mavji to'fondin qolishmas. (57)

Zarvaraqtek bo'lmisham siymin saqoqing shavqidin,
Ko'r, ki ne zardu nizor etti meni savdom ha. (72)

Mehrob qoshi sori zinhor boqma, zohid,
Vayron bo'lur namozing,barcha qazo qilursan. (86)

Behad orttirma mubolag'ani ifrot deb ataladi.Sarv yor qaddi-qomatining rahnamoligida voyaga yetgan:

Qomatingning qullig'inda yosh edi, ulg'aydi sarv,
Boshi titrar emdi hijlattin ani ozod qil. (141)

Yorning yuzi shu qadar go'zal va nurlik, buni ko'rgan oyning yuzida dog'lar paydo bo'ladi:

Tun kecha o'n to'rt kungi oyning ko'rmish yuzung,
Ushbu kun oyning jamoli ichra nuqson ko'rnatdur. (77)

Mumtoz adabiyotimizda mubolag'a san'ati asar uchun zarur bo'lган bir detal sanalib, san'atkorning badiiy mahoratidan darak berar edi.

Yuksak san'atkilik Lutfiy lirikasining sehrlovchi kuchidir. Biz yuqorida Lutfiy yangi -yangi badiiy obrazlar, nafis lavhalar yaratishda mubolag'a san'atidan mohirlik bilan foydalanganini guvohi bo'ldik. Xondamir asaridan olingan yuqoridagi fakt Lutfiyning adabiyotga bo'lган g'amxo'rligi va uning haqida tasavvur beradi.

Demak, mubolag'a san'ati ham adiblar ijodida muhim o'rin tutgan badiiy tasviriy vositalarning biridir.

2.3. Lutf va irsoli masal

Lutf – arabcha yaxshilik, marhamat so'zidan olingan bo'lib, she'riyatda so'z o'yini tariqasida bir so'z yoki so'z birikmasini ko'p ma'noda ifodalashdir¹. Lutf san'atining xarakterli xususiyati shundaki, o'quvchi avtor ishlatgan so'z o'yinini mutolaa davomida darhol sezadi va o'sha misrani takror o'qish ishtiyoqi uni band etadi: darhaqiqat ikki marta o'qiganda ikki xil ma'no chiqarib oladi.

Lutf dastlab xalq og'zaki ijodida voyaga yetdi. O'zbek mumtoz shoirlari bu san'atdan unumli foydalanadilar.

Quyida lutf san'atining Lutfiy ijodida qanday o'rin tutganini ko'rib o'taylik:

Kun tushta ko'rgali seni tushti zavolg'a,
Oy tong'a qoldi, kecha boqib ul jamolg'a. (253)

Baytni bir o'qishda shunday tushunish mumkin: quyosh jamolingni tush chog'i ko'rib, zavolga tushdi. G'tezroq chekindiG'; oy esa kechasi jamolingga

¹ A. Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent: Sharq, 1999, 52-bet.

qaraganicha tongga qadar qolib ketdi.Yana shunday ma'no chiqarish mumkin:Quyosh jamolingni tushida ko'rish uchun uyquga ketdi G'botdiG'.Oy tunda jamolingga boqib hayratda qoldi.

Shoir yorning go'zalligi to'g'risida so'z ochib,ajoyib epizod yaratgan. Kishi hayotda biror narsaga hojatmand bo'lsa,uni qidiradi,kezadi.Agar biror mo'jiza ko'rsa,qattiq hayratga tushadi, qilar ishini bilmay qoladi.Lutfiy tasvirlayotgan go'zal mahbuba shu qadar husnga boyki,quyosh uni tushida ko'rish uchun tezroq uyquga ketadi.Oy esa yor husniga qaragancha tong orttiradi.Baytda so'z birikmasi yordamida lutf kelib,ikki xil ma'no ifodalaydi:

Munajjim qoshu ko'zing ko'rgach aytur,
Kim,ushbu oy boshinda fitnalar bor. (102)

Shoir «oy boshinda» so'z birikmasi orqali ikkita ma'noli fikrni aytmoqchi:
1. Shu oyning boshlarida- dastlabki kunlarida fitnalar ro'y beradi. 2. Bu oy (yorni ko'zda tutilyapti)ning boshidafitnalar bor.

Qilur qon g'amzasi ko'zlarni bog'lab,
Halol o'lunki,sehr aylar bu fanda. (212)

Ko'z bog'lash -ko'z bog'lash va hushni o'g'irlash. Bir so'zni ikki yoki undan ortiq ma'noda qo'llash orqali ko'p misrali she'r bunyodga keladi.Lutfkor shoir so'zlarning ma'no doirasini kengaytiradi.

Lutfiy,Hirida qolmadi she'riyatga mushtari,
Azmi Hijoz qilki,maqoming Iroq emish. (194)

ko'p uchraydigan xillaridan biri kuylar va shahrlar nomidagi so'zlar o'yinidir.Yuqoridagi baytning ikkinchi misrasidan shunday mazmunini o'qiymiz.

1. Shahar ma'nosida: Hijozga yo'l ol,maskanning Iroq emish.

2. Kuy ma'nosida: «Hijoz» kuyini boshla,maqoming-Iroq.

Shoirning lutf bilan so'z o'yini qilayotgani bir qarashda san'atpardozlikday ko'rinsa,yoki o'quvchini qoyil qoldirishga urinayotganday tuyulsada,aslida san'atkor tilning katta imkoniyatlarini yorqin ko'rsatuvchidir.

Ey ko'zi qaro,bog'i visoling havasindin,

Ne kirpukimizning orasinda Arase bor. (102)

Baytni birinchi vergulga e'tibor qilmay o'qisak,lutfni yaqqollashtirgan bo'lamiz:qaro bog'i-qorabog'lik,arase-orasida.Bu baytda atoqli ot turdosh otga aylantirilib,yangi ma'no yasashga doir yana bir misol :Chin-chin,Xito-xato.

Ko'rguzsa qaro,barham urar Chinu Xitoni

Ko'z ustidaki xoli chu qoshi bila o'ynar. (98)

So'zning ononimik xususiyatiga ko'ra yaratilgan lutflarni ham Lutfiy ijodida uchratish mumkin.Safina - qayiq va daftar:

Lutfiy kalomi etsa Samarqand ahlina,

Amudin o'tmas edi Xo'jandiz safinasi. (306)

Lutfiy ushbu lutfning hosil bo'lishida so'zning ko'p ma'noliligi va gapning mahsus qurilishiga ham ahamiyat bergen.

Bo'ldi ko'p fikri daqiq ichra hayoli Lutfiy,

Bu ne mo'yu,ne miyondur,dedim,aytur:sanga ne? (272)

«Bu ne mo'yu,ne miyondur» gapining ikki xil mazmuni:

Bu qanday sochu,bu qanday bel?!

Bu na sochu,na beldir. (71)

«Mardumi bemor» birikmasining ikki xil ma’oliligi tufayli lutf yasalgan:mardumi bemor-bemor kishilar ;xumor-ko’z qorachig’i.

Nun qoshi uchun bahr qilib yer yuzini ko’z
Ul mohe ko’zum mardumi yoshi bila o’ynar. (47)

Shoirning tasvirlashicha, oshiq mahbubaning nunga o’xhash qoshi yodida yig’lab yer yuzini dengizga aylantirgan.Oshiq ko’zi ham oqayotgan yosh bilan so’z ichida. Uni shu holga solib qo’yan oy endi oshiq ko’zining mardumida aks etib, o’ynashayotir. Baytning ikkinchi ma’nosisi: moh so’zi baliq ma’nosiga ham ega. Mahbub ko’z yoshlari to’fonida baliq kabi oshiq ko’z mardumi bilan o’ynashmoqda; bu bayt Lutfiyning «Ko’zi qoshi bila o’ynar» g’azalidan olingan. Xuddi shu g’azalda yana shunday so’z o’yiniga duch kelamiz:

Shatranji latofatni o’tar nechakim ul oy,
Ruh tarh berib,charx quyoshi bila o’ynar. (47)

Dastlabki qarashda shatranj G’shaxmatG’ o’yini va undagi ruh shaxmat donalaridan birining roli to’g’risida fikrni anglatuvchi bu baytda kuchli so’z o’yini mavjud.Lutfiy ruh so’zining ikkinchi ma’nosisi -yuz,chehradan foydalanib,yor qanday latofat,go’zallik o’yinlarida yengib chiqadi va yuzini bezatib,quyosh bilan o’ynashadi,musobaqa qiladi,demoqchi.

O’zbek tilining boy va keng imkoniyatlaridan ijodiy foydalangan Lutfiy mahorati,lutf san’atining jozibasini tushunib qo’llash tufayli,tilimizdagি bu san’atning ahamiyatini yanada oshirdi.O’zbek xalq og’zaki ijodining qadimiy va hamisha navqiron bu san’atini folklor va yozma adabiyotimizning o’ziga xos ko’rkiga aylantirdi.

Mavlono Yaqiniy o’z asri lutskori haqida quyidagilarni yozadi: «Yana Mavlono Lutfiyki lutfi ta’b birla zufaro orasinda mashhur erur».Bu daraja mahorat har qanday qalam ahlining qo’lidan kelavermaydi,albatta.

Irsoli masalning lug'aviy ma'nosi maqol keltirish bo'lib, biror muhokama va mulohazani maqol bilan tasdiqlash usulidir¹.Qadimgi mumtoz she'riyatdada,adabiyotshunoslikka oid asarlarda tasvir davomida maqol qo'llash hodisasiga tamsil deb qaralgan.O'zbek shoirlari o'z ijodiy mahsullarini folkloarning eng qimmatbaho xazinasi-maqollari bilan bezash,o'z fikrlarini xalq donoligi bilan tasdiqlashni juda ma'qul ko'rganlar.

Lutfiyning «Ayoqingga tushar har lahza gisu» misrasi bilan boshlanadigan g'azali boshdan-oyoq tamsildan foydalanish namunasi hisoblanadi.

Ayoqingga tushar har lahza gisu,
Masaldurkim:»Charog' tubi qarong'u»

Tutarmen ko'zki,ko'rsam orazingni,
Ki derlar:»Oqqan ariqqa oqar su»

Yuzungni tuttim ortuq oyu kundin,
«Kishining jo'zidir,ore,tarozu».

Ko'zing qonimdin iymanmas ajabtur,
Ki «Qo'rqrar qaydakim qon ko'rsa hindu»

Tilar vaslingni Lutfiy,qil ijobat,
Ki ayturlar: «Tiloganni tilogu» (214)

Bu g'azalda xalq maqollari va hikmatlaridan shoir mohirona foydalangan:chiroq tagi qorong'u,yoki chiroq nuri tagiga tushmas, oqqan ariqqa oqar suv,kishi ko'zi tarozi,hindi qon ko'rsa qo'rqtat (tojikcha akvivalenti ham bor:hindu xun did-bu maqol Buxoro tojiklari tilida asosan qo'llanadi),san'atkor

¹ A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent: Sharq, 1999, 64-bet.

asarda qo'llagan maqolini faqat tasdiqlab,ma'qullab qolmasdan,balki zikr etgan maqoliga o'zining turli tuman munosabatini ham bildirishi mumkin.

X U L O S A

Biz bitiruv-malakaviy ishini yozish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Zamonasining malikul-kalomi – so’z mulkining sultoni faxriy unvoniga munosib ko’rilgan, Firdavsiy, Nizomiy, Anvariy, Sa’diy, Xoja Hofiz singari buyuk fors-tojik adabiyoti darg’alari qatoridan faxrli o’rin egallagan Mavlono Lutfiy o’zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyandalaridan biridir.

2. Shoirning hayoti va faoliyati haqida Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois», «Muhokamatul-lug’atayn», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Xutbai davovin», «Badoye’ ul-bidoya» devoni debochasi va boshqa asarlarida, Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkiratush-shuar», Xondamirning «Habibus-siyar», «Makorimul- axloq», Abdulla Kobuliyning «Tazkirat -ut tavorix», Shamsuddin Somiyning «Qomusul-a’lom», Vosihning «Majmuai manzum va mansur», Shayx Ahmad Taroziyning «Fununul- balog’a» singari qator manbalarda ma’lumotlar uchraydi. Shunday bo’lishiga qaramay, Lutfiyning tarjimai holi va adabiy merosi haqida to’liq tasavvur hosil qilish qiyin. Jumladan, Lutfiy shoirning taxallusi bo’lib, uning nomi, ota-onasi, tug’ilgan yil va joyi, safarlari hamda shunga o’xshash qator masalalar haligacha lutfiyshunoslikda o’z yechimini qat’iy topganicha yo’q.

3. Mavlono Lutfiyning zamondoshlaridan bo’lgan ulug’ o’zbek shoiri Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida shoirning to’qson to’qqiz yil umr ko’rgani, hayotining so’ngida forsiyda «Oftob» radifli g’azal yozgani va zamon shoirlari unga tatabbu’ qilganliklari, yigitligida zohiriy ulum tahsilidan so’ng Mavlono Shahobiddin Xiyoboniq qoshida tasavvuf tariqatidan tahsil olgani hamda Hirot chekkasidagi Dehikanor degan joyda dafn etilganligi haqida qimmatli ma’lumotlarni keltiradi

4. Lutfiy sohibdevon shoir sifatida turkiy tildagi she’rlarini jamlab, devon tartib bergen. Shoir devonlarining 33 qo’lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan bo’lib, ular Toshkent, Dushanba, Istanbul, Tehron, London, Parij, Sankt-Peterburg kutubxonalari va qo’lyozma fondlarida saqlanadi. Olim E. Ahmadxo’jaevning aniklashi bo’yicha, Lutfiy qalamiga mansub mavjud she’rlarning umumiyligi miqdori

2774 bayt yoki 5548 misradan ortiq. Ularning katta qismi (2086 bayti) g'azal janrida yozilgan. Mavlono Lutfiy devonining hoziigacha ma'lum nusxalarida 372 g'azal, 3 qasida, 115 to'rtlik, 60 fard va ruboiy, tuyuq, qit'a kabi janr namunalari uchraydi.

5. Yaqin vaqtlargacha Lutfiyning tavallud topgan va vafot etgan joyi Hirotning Dehi Kanor mavzei deb ko'rsatib kelingan. Shayx Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug'bekka bag'ishlab yozilgan «Funun ul-balogs'a» asari topilgach, undagi «ma'dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy» jumlalariga asoslanib, Lutfiyning ona vatani Toshkent bo'lgan, degan fikr ham ilgari surildi.

6. Uzoq yillar Lutfiyga nisbat berib kelingan «Gul va Navro'z» dostoni XX asrning 90-yillarida Haydar Xorazmiya taalluqli asar ekanligi e'tirof etildi. Shuni ta'kidlash kerakki, Navoiy uni «Majolis un-nafois» tazkirasida yodga olmagan. Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balogs'a», Faxriy Hirotiyning «Majolis un-nafois» tazkirasining fors tiliga qilingan tarjimasi, Boburning «Aruz risolasi» asarlarida «Gul va Navro'z» Mavlono Haydar Xorazmiy asari, deb ko'rsatilgan.

7. Lutfiy she'rlari Alisher Navoiygacha yaratilgan o'zbek mumtoz adabiyotining g'oyaviy va badiiy jihatdan, o'ziga xos uslubi nuqtai nazaridan eng yuksak namunalari sanaladi, Sho'r, ayniqsa, g'azalnavislikda shuhrat qozonadi. Turkiy adabiyotda vujudga kelgan tuyuq janri taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

8. Lutfiy lirikasi mavzu jihatidan nihoyatda rang-barangdir. Sevgi-muhabbatni ulug'lash – sho'r g'azaliyotining asosiy mavzuidir. Sho'r mana shu umrboqiy mavzu atrofida hayot go'zalligidan zavqlanish, tabiatning fusunkor manzaralaridan bahramand bo'lish, odamiylik, yuksak insoniy fazilatlar: mehr-muhabbat, vafo va sadoqat kabilar haqida keng mushohada yuritadi, Olam va odam xususidagi teran mulohazalarini badiiylashtiradi. Lutfiy mumtoz adabiyot an'analari, xalq og'zaki ijodining beba ho durdonalaridan bahramand bo'lib g'azaldagi markaziy obraz-ma'shuqani ohori to'kilmagan baytlarda tavsif etadi. She'r qahramonining turli holat va kayfiyati, ruhiy kechinmalarini hayotiy misollar asosida yorqin tasvirlaydi. Shuningdek, g'azallarida davrning ijtimoiy-siyosiy masalalari haqida ham fikr yuritadi.

9. Shoир she'rlarida tazod, tashbeh, husni ta'lil,mubolag'a, lutf,talmeh, irsolи masal kabi o'nlab badiiy san'atlardan san'atkorona tarzda foydalanadi.Xususan, shoир xalq maqollari, hikmatli so'zlarini g'azalning janriy xususiyati, mazmun va tasvir tabiatidan kelib chiqqan holda yo aynan yoki qisman o'zgartirilgan shaklda mohirlik bilan qo'llaydi. Shoирning mahorati shundaki, u boshdan oyoq irsolи masal san'ati asosida yaratilgan g'azallar mavjud. «Ayoqingga tushar har lahza gesu” misrasi bilan boshlanuvchi g'azal fikrimizga misol bo'la oladi.

10. Lutfiy she'riyati, ayniqsa, g'azallari keyingi asrlarda yashab ijod etgan shoirlar uchun ilhom manbai bo'lib qoldi. Alisher Navoiy ijodkor g'azallaridan adabiy ta'sirlanib, ularga muxammas va musaddaslar bog'ladi. Ulug' ozarbayjon shoiri Fuzuliy (XVI asr) va o'zbek shoirlaridan Munis, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Furqat kabi ijodkorlar Lutfiy adabiy merosidan bahramand bo'lishdi.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Y O T L A R

R O' Y X A T I

I. I J T I M O I Y – S I Y O S I Y A D A B I Y O T L A R :

1.1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 1996.

1.2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2000.

1.3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

1.4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2010.

1.5. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi, «Xalq so'zi», 2011 yil, 16-yanvar.

1.6. Karimov I.A. «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida». – Toshkent: O'zbekiston, 2011.

II. M A N B A L A R :

1. Lutfiy. Sensan sevarim. –Toshkent: Fan, 1987.
2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT, 20 jildlik, 13-jild. –Toshkent: 1997.
3. Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. MAT, 20 jildlik, 15-jild. –Toshkent: 1999.
4. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT, 20 jildlik, 7-jild. – Toshkent: 2001.

4. ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLAR:

- 3.1. Ahmadxo'jayev E. Turkiy nazmning sehrgari. –Toshkent: Fan, 1992.
- 3.2. Atulloh Husayniy. Badoe' us-sanoe'. –Toshkent: Fan, 1981.
- 3.3. Erkinov S. Lutfiy. –Toshkent: 1978.
- 3.4. Valixo'jaev. Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy. –Samarqand, 1999.
- 3.5. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. –Toshkent: 2006.
- 3.6. Ishoqov Yo. «Gul va Navro'z''ning muallifi Lutfiymi? O'zbek tili va adabiyoti, 1972, 1-son.
- 3.7. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. –Toshkent, Fan, 1983.
- 3.8. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. –Toshkent: Zarqalam, 2006.
- 3.9. Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston NMIU, 2009.
- 3.10. Navoiy asarlari lug'ati, -Toshkent: Fan, 1971.
- 3.11. Navoiyning nigohi tushgan. –Toshkent: 1986.
- 3.12. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Fan, 1979.
- 3.13. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: Fan. 2005.
- 3.14. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 1-jild. –Toshkent: Fan. 1977.
- 3.15. Qayumov A. Asarlar. 10 jildlik, 3-jild, –Toshkent, Mumtoz so'z, 2009.
- 3.16. Qayumov A. Nazm va tafakkur quyoshi. –Toshkent: Fan, 1992.
- 3.17. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent: Sharq, 1999.
- 3.18. Hamidov Z. Navoiy badiiy san'atlari. –Toshkent: Universitet, 2001.
- 3.19. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. –Toshkent, Fan, 1993.

4. INTERNET MA'LUMOTLARI:

- 4.1. <http://www.gpntb.ru>
- 4.2. <http://www.natlib.uz>
- 4.3. <http://www.faak.uz>
- 4.4. <http://www.literature.uz>

ILOVALAR.

Mavlono Lutfiy o'z zamonining malikul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi. Ammo turkiyda shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdur va mutaazzirul javob matla'lari bor, ul jumladin biri budurkim:

Nozukluk ichra belicha yo'q tori gisuyi, Uz haddini bilib, belidin o'ltirur quyi.

Yana biri bukim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochtin,
Soldi kamand bo'y numa ikki qulochtin.

Va Mavlononing «Zafarnoma» tarjimasida o'n ming baytdin ortuqroq masnaviysi bor, bayozg'a yozmag'on uchun, shuhrat tutmadi va lekin forsiyda qasidago'y ustodlardin ko'pining mushkul she'r larig'a javob aytibdur va yaxshi aytibdur. To'qson to'qquz yashadi va oxir umrida radifi «oftob» she'ri ayttikim, zamon shuarosi barcha tatabbu' qildilar, hech qaysisi matla'ni oncha ayta olmadilar va ul matla' budurkim:

Ey zi zulfi shab misolat soyaparvar oftob,
Shomi zulfatro ba joyi moh dar bar oftob.

Va o'tar vaqtida bu g'azal matla'inkim, tiganmaydur erdi, hazrati Mahdumiy Nuran tugatib, o'z devonlarida bitisunlar. Ul hazrat ham tugatib, o'z devonlarida bitidilar va ul matla' budurkim:

Gar kori dili oshiq bo kofiri Chin aftad,
Beh z-on ki ba badxo'i bemehri chunin aftad.

Mavlono yigitligida ulumi zohiriyni takmil qilg'ondin so'ngra Mavlono Shihobiddin Xiyoboniy qoshida so'fiya tariyqida ham suluk qilg'ondur. Aziz va mutabarrak kishi erdi.

Bu faqir borasida ko'p fotihalar o'qubtur. Umed ulkim, chun darvesh kishi erdi, ba'zi mustajob bo'lmish bo'lg'ay.

Mavlononing qabri shahr navohisida Dehi Qanor-dakim, o'z maskani erdi, andadur (Alisher Navoiy. «Majolisun nafois»dan).